

# Xodimlar bilan ishlash mutaxassislari uchun seminar-trening tashkil etildi

// 23.11.2023

<https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/xodimlar-bilan-ishlash-mutaxassislari-uchun-seminar-trening->



Bugun "O'zkimyosanoat" AJ da "Qizilqum fosforit kompleksi" MChJ bilan birgalikda xodimlarni zamonaviy usullardan foydalangan holda boshqarish, xodimlarda korxonaga nisbatan aloqadorlik hissini yanada oshirish, kimyo sanoati tarmog'ida ishchi-xodimlar o'rtasida mehnat munosabatlarini to'g'ri tashkil etish maqsadida seminar-trening boshlandi.



Unda "O'zkimyosanoat" AJ va tarmoq korxonalarining xodimlar bilan ishlash, xodimlarni tayyorlash va malakasini oshirish bo'linmalari hamda Malakalarni baholash markazlari mutaxassislari ishtirok etishmoqda.



Treningda yangi mehnat qonunchiligi asosida mehnat munosabatlarini to'g'ri tashkil etish, undagi o'zgarishlar, bo'lim xodimlarining bilim va ko'nikmalarini oshirish, sohadagi dolzarb muammolar va yangiliklar muhokama qilinmoqda.



Ekspertlar tomonidan mutaxassislar mahoratini oshirish uchun qiziqarli taqdimotlar va mehnat qonunchiligidan eslatmalar namoyish etildi.



Seminar-trening ertaga ham davom etadi.

**"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati**